

Date: 17th April-2026

RIVOJLANGAN DAVLATLAR JAZO TIZIMIDA VOYAGA
YETMAGANLARGA NISBATAN JAZO TAYINLASH

Omonova Dilfo'za Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi amaliyoti mutaxassisligi Magistratura talabasi

Voyaga yetmaganlar uchun adolatli jazo tayinlash tizimi doimo murakkab masala bo'lib kelgan, chunki bu tizim yoshlarni jazolaydigan tizimdan ko'ra, ularni tarbiyalaydigan, jamiyatga qayta qo'shishga va kelajak hayotini yana mustaqil yo'lga qo'yishga imkon beradigan tizim bo'lishi kerak. Dunyoning turli mamlakatlarida voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash amaliyotlari sezilarli darajada farq qiladi.

Germaniya.

Germaniyada voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat huquqi masalalari "Jugendgerichtsgesetz"¹ ("JGG" deb yuritiladi) yoki "Yoshlar sudi to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Bu qonun 1953-yilda qabul qilingan bo'lib, keyinchalik bir necha bor o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, 2021-yil bu qonunning 21-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, unda, "agar bolaga (yosh shaxsga) berilgan jazo 1 yildan oshmasa, sud jazoni ijro etishni shartli (probatsion) tarzda to'xtatishi mumkin". Buning asosiy sharti – sud bolaning jazoni ogohlantiruvchi tajriba sifatida qabul qilishi, ya'ni jazodan saboq olib, jazoni ijro etmasdan ham tarbiyaviy ta'sir ostida kelgusida halol hayot kechirishiga ishonishi lozimligi belgilab o'tilgan.

Germaniya qonunchiligiga ko'ra, 14 yoshdan past bo'lgan shaxslar jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi. 14-17 yoshdagi shaxslar "yoshlar" deb hisoblanadi va ular yoshlar sudi tizimi orqali sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikka tortiladi. Ularning jinoyat ishlar ushbu sudlardan boshqa sudlarda ko'rib chiqishi man etiladi. 18-20 yoshdagi shaxslar "yoshi kattalar" deb hisoblanib, ular holatiga qarab yo yoshlar sudi, yo kattalar sudi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin. bunda asosiy e'tibor sodir etilgan qilmishga qaratiladi. E'tiborli jihati shundaki, aynan Germaniyada yoshlar masalalarida sudlarning mavjudligi, yoshlarni jinoyat sodir etgandan so'ng, faqatgina jazolash emas, balki, ularni kelajakda qayta tabiiylanishiga erishish hamda ularning sodir etgan qilmishiga individual yondashish imkonini beradi. Ushbu turdagi "yoshlar sudi"da yana shunisi ahamiyatliki, sudyalarning psixologiyaga ham o'qitilishi belgilangan,

Ushbu turdagi sudlar, avvalambor, jinoyatning sodir **etilish sharoiti, jinoyatchining shaxsiyati, jinoyatdan keyingi xulq-atvori va avvalgi jinoyat tarixi** kabi omillarni hisobga olib, hukm chiqaradi. Xususan, jazoni belgilash jarayonida *yengillashtiruvchi omillarni qo'llash* imkoniyatlarini hisobga olishlari shart. Germaniyadagi voyaga yetmaganlarga nisbat ko'riladigan ishlarining asosiy tamoyili - bu

¹ Jugendgerichtsgesetz (JGG) <https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/BJNR007510953.html>.



Date: 17th April-2026

jazo emas, balki tarbiya erishish hisoblanadi. JGG qonunining 5-moddasiga ko'ra, "sud yoshlarga nisbatan birinchi navbatda tarbiyaviy choralarni" qo'llashi kerak, ularning ahamiyati yetarli deb hisoblanmagan taqdirda esa jazo choralari oxirgi zarurat sifatida qo'llanilishiga ruxsat berilgan. Bu choralar orasida ijtimoiy xizmat, nizolarni hal qilish kurslari, voyaga yetmaganlar uchun maxsus treninglar kabilar mavjud. Bundan tashqari, **intizomiy choralar** faqat tarbiyaviy choralar yetarli bo'lmasa, yosh shaxsning jinoyati intizom choralari (masalan, ogohlantirish) yoki yoshlar uchun nazarda tutilgan jazo turlari bilan jazolanadi. Bu jazo choralari odatda, yoshlarning xatti-harakatlarini yanada qat'iy nazorat qilishga qaratilgan bo'ladi.

Shuningdek, **psixiatrik yoki davolash muassasalariga joylashtirish** voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo turlaridan biri hisoblanadi. Agar yosh shaxsni psixiatrik shifoxona yoki giyohvandlikdan qutulish muassasasiga joylashtirish sud tomonidan qo'llaniladigan jazo o'rmini bosadigan bo'lsa, unda intizom choralari va yoshlar uchun belgilangan jazo turlari qo'llanilmaydi. Ya'ni, bunday muolaja sudning jazoviy hukmini talab qilmaydi. JGG qonunining 45-moddasiga ko'ra, "Prokuror voyaga yetmaganning birinchi marotaba hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan bo'lsa, jazo tayinlamasdan jinoyat ishini to'xtatishi mumkin. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda kattalardan farqli o'laroq, jazo muddatlari sezilarli darajada kamaytiriladi. JGG qonunining 21-moddasiga ko'ra, "sud voyaga yetmaganning jinoyatdan keyin bo'lgan davrdagi ijobiy o'zgarishlarini, ta'limga yoki ishga bo'lgan munosabatining o'zgarishini hisobga olishi mumkin²". Bu esa yoshlarga beriladigan yana bir ijobiy imkoniyat sifatida belgilanadi.

Germaniya sud amaliyotiga ko'ra, "agar voyaga yetmagan shaxs avval ham jinoyat sodir etgan bo'lsa va tarbiyaviy choralar natija bermagan bo'lsa, bu jazo tayinlashda **og'irlashtiruvchi** holat sifatida qaraladi³". JGG qonunining 17-moddasiga ko'ra, "agar voyaga yetmagan shaxs jiddiy jinoyat sodir etgan bo'lsa, unga nisbatan ozodlikda mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin". Agar voyaga yetmagan shaxs jinoyatni guruh tarkibida sodir etgan bo'lsa, bu jazo tayinlashda o'g'irlashtiruvchi holat hisoblanadi.

Germaniya sudlarida, birinchi o'rinda, jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda, voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishdagi aybdorlik darajasi, uning o'z harakatlarini anglay olish qobiliyati va o'zini boshqarish imkoniyati hisobga olinadi. Agar sud voyaga yetmagan shaxsni aqlan va jismonan yetarlicha rivojlangan deb topsa, bu jazo tayinlashda o'g'irlashtiruvchi holat sifatida qaralishi mumkin. Chunki u sodir etgan qilmishi ahamiyatini anglay oladi, o'z harakatlarini baholash kuchiga ega.

Sud amaliyotlariga ko'ra, agar 17 yoshdagi shaxs bir necha marta jinoyat sodir etsa, uning retsdiv tarixi sud qarorida qat'iyroq jazoni belgilash uchun og'irlashtiruvchi omil sifatida baholanadi. **Boshqa tomondan**, agar 15 yoshdagi shaxs birinchi marta jinoyat sodir etsa, uning oilasi, maktabi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lsa, sud

²Jugendgerichtsgesetz (JGG) <https://www.gesetze-im-internet.de/jgg/BJNR007510953.html>.

³ Dünkel, F. (2016). "Juvenile Justice Systems in Europe – Reform developments between justice, welfare and 'new punitiveness'". Kriminologijos Studijos, 4, 31-76. <https://www.researchgate.net/publication>.



Date: 17th April-2026

bu holatni yengillashtiruvchi omil sifatida ko'rib chiqishi mumkin. **Ba'zi holatlarda**, yosh shaxsning kelgusida jiddiy jinoyat sodir etish xavfi aniqlansa, sud jamiyat xavfsizligini ta'minlash maqsadida jazoni og'irlashtiruvchi choralarni qo'llashi mumkin. Germaniyada voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash tizimi asosan yoshlarning tarbiyaviy va rehabilitatsion salohiyatiga urg'u beradi. Sudlar jinoyatning og'irligini va salbiy jihatlarini, jumladan retsidivlik, jinoyat sodir etilish jarayonini, shaxsiy xulq-atvor va ijtimoiy sharoitlarni sinchkovlik bilan tahlil qilib, so'ngra ushbu jinoyat ishi yuzasidan hukm chiqaradi. Shu bilan birga, yosh jinoyatchilarning sodir etgan qilmishidan amalda pushaymon bo'lishi, tarbiyaviy imkoniyatlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi ularning qayta o'z hayot tarziga integratsiyasi uchun muhim hisoblanadi.

Tizimning asosiy xususiyati shundaki, yoshlar bilan ishlashda nafaqat jazolash, balki ularni tarbiyalash va jamiyatga qaytarish ustuvorligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Og'irlashtiruvchi omillar jinoyatning salbiy jihatlarini ta'kidlasa, yengillashtiruvchi omillar esa yoshning ijobiy o'zgarishlarga qodirligini ko'rsatadi. Shu sababli ham, Germaniya tajribasi, hozirgi kunda juda ko'plab sohalar singari voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda o'z samarasini berib kelmoqda va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning sezilarli kamiyishiga zamin yaratmoqda.

Yaponiya.

Bu davlatda voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tizimi boshqa mamlakatlardan farqli bo'lib, u voyaga yetmaganlar sudi tomonidan boshqariladi. Yaponiyada voyaga yetmaganlar bilan bog'liq jinoyat ishlari "Shōnen-hō" yoki "Voyaga yetmaganlar huquqlari to'g'risida" gi qonun bilan tartibga solinadi. Bu qonun 1948 yilda qabul qilingan bo'lib, vaqt o'tishi bilan bir necha marotaba o'zgartirilgan. Yaponiyada "voyaga yetmagan" sifatida (少年, shōnen) 20 yoshga to'lmagan har qanday shaxs belgilanadi. Biroq, huquqiy islohotlar natijasida voyaga yetganlik yoshi 2022-yil apreldan boshlab 20 yoshdan 18 yoshgacha pasaytirildi. Shunga ko'ra, **voyaga yetmaganlar 3 toifaga bo'linadi:**

- jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar (14-18 yosh);
- *qonunni buzgan, voyaga yetmaganlar (hukumat organlari tomonidan taqiqlangan, lekin kattalar uchun jinoyat hisoblanmaydigan harakatlarni sodir etgan shaxslar);*
- *"pre-delinquent" voyaga yetmaganlar (jinoyat sodir etmagan, lekin ularning xulq-atvori va sharoitlari ularda jinoyatchilikka moyillik paydo bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi)*⁴. Yaponiyada voyaga yetmaganlarga sodir etilgan qilmishi uchun jazo tayinlash tizimi Germaniya davlati kabi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Bunda, dastlabki jazo choralardan biri sifatida **reabilitatsiya qilish amalga**⁵ oshiriladi. Ushbu jazo chorasini qo'llashdan asosiy maqsad, voyaga yetmaganlarni jazolash

⁴ P. Vidjia (2008). *Diversion from Juvenile Justice System in Japan, South Africa, and England: Lessons Learnt for Cambodia*. <https://www.academia.edu>.

⁵ Japan's Rehabilitation System: Relearning Crime for Youth, 2020. <https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/ReducingReoffending/MS/Japan - Input on reducing reoffending.pdf>.



Date: 17th April-2026

emas, Balki, voyaga yetmaganlarni jamiyatga qayta integratsiyalash va ularni jamiyat uchun naf keltiradigan fuqarolarga aylantirishdir.

Ikkinchidan, yoshlarning sodir etilgan qilmishi uchun sudlar tomonidan qaror qabul qilishda bolaning (yoshlarning) manfaatlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi.

Uchinchidan, voyaga yetmaganlar jazo o‘tash davrida, kattalardan alohida saqlanadi va ular uchun maxsus sudlar, qamoqxonalar, jazoni tartiblar qonunlar asosida tartibga solinadi.

To‘rtinchidan, sudlar tomonidan, “voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari amalda yopiq tarzda ko‘rib chiqiladi va ularning shaxsiy ma‘lumotlari jamoatchilikka oshkor etilmasligi ta‘minlanadi⁶”. Yaponiya qonunchiligiga ko‘ra, 14 yoshdan past bo‘lgan shaxslar jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi. Bundan tashqari, “Shōnen-hō” qonunining 6-moddasiga ko‘ra, “politsiya voyaga yetmagan jinoyatchini bevosita prokuraturaga emas, balki “Kenchi” (Yoshlar vakili) ga yo‘naltirishi mumkin”. Bu esa uning sodir etgan qilmishiga qarab baholanadi. “Kenchi” voyaga yetmaganlarning holatini o‘rganib, unga nisbatan tarbiyaviy choralar qo‘llash yoki qo‘lmaslik bo‘yicha qaror qabul qiladi. “Shōnen-hō” qonunining 25-moddasiga ko‘ra, “sud voyaga yetmagan shaxsning oilasini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini, jamiyatga qaytarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish ko‘radi”. Shuningdek, Yaponiya qonunchiligining o‘ziga xos jihati shundaki, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar oilaviy sudlar tomonidan ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Oilaviy sudlar tomonida ko‘rib chiqilishining asosiy sababi shundaki, bu farzandga nisbatan ota-onaning ma‘suliyatini kuchaytirishga va bolaning qayta jinoyat sodir etmasligi uchun tarbiyaviy choralarning kuchaytirilishiga imkon yaratadi.

Norvegiya.

Bu davlatda voyaga yetmaganlarga nisbatan adolatli jazo tayinlash tizimi, boshqa huquq tizimi rivojlangan davlatlar singari, liberal va tarbiyaviy yondashuvga asoslanganligi bilan e‘tiborni tortadi. Norvegiyaning Jinoyat kodeksi va “*Barnevernet*” (*Bolalar farovonligi xizmati*) qonuni voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash masalalarini tartibga soladi. Norvegiya qonunchiligiga ko‘ra, 15 yoshdan past bo‘lgan shaxslar jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikka tortilmaydi. 15-18 yoshdagi shaxslar jinoyat javobgarligiga tortilishi mumkin, ammo ularga nisbatan maxsus qoidalar jinoyat qonunchiligi asosida qo‘llaniladi.

18 yoshdan yuqori shaxslar kattalar sifatida jinoyat javobgarligiga tortiladi va voyaga yetgan hisobladi⁷. Bu yerda voyaga yetmagan (yosh jinoyatchilar) shaxslar ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganda, yoshlarning axloqini tuzatish organlari (kriminalomsorgen), bunday jinoyatchilarning jazosini o‘tash davridagi xulq atvoriga hamda ularning tuzalish yo‘liga kirganligiga asosiy e‘tiborni qaratadi. Yosh jinoyatchilar uchun ikkita maxsus qamoqxona mavjud, biri Bergen (Bjørgvin) yaqinidagi

⁶ W. Tubbs (2014). The Roots of Stress-Death and Juvenile Delinquency in Japan: Disciplinary Ambivalence and Perceived Locus of Control. Journal of Business Ethics. <https://link.springer.com/article/10.1007/BF00881296>.

⁷ The Norwegian Criminal Code, Act 2005-05-20-28 (Lov om straff), section 20, subparagraph a.



Date: 17th April-2026

g'arbiy sohilda va biri mamlakatning sharqiy qismida (Eidsvoll) da joylashgan⁸ bo'lib, sudlar tomonidan jazo tayinlash hukmida, ularning qaysi qamoqxonada jazoni o'tashi aniq belgilab qo'yiladi.

Norvegiya jazo tayinlash tizimining asosiy tamoyili bu ozodlikdan mahrum qilish jazosini imkon qadar kam qo'llash va voyaga yetmaganlarga boshqa turdagi jazolarni tayinlashdir. Norvegiya Jinoyat kodeksining 78-moddasiga ko'ra, "voyaga yetmaganlarga nisbatan ularni hayotga tiklovchi adolat tamoyillari qo'llanilishi kerak". Bu jinoyatchi va jabrlanuvchi orasida mediatsiya o'tkazish, kechirim so'rash va zararni qoplash kabi choralarni o'z ichiga oladi. Norvegiya Jinoyat kodeksining 48-moddasida, "sud voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga **jamiyat xizmati** jazo chorasi qo'llashi" mumkinligi belgilab qo'yilgan.

2014-yilda Norvegiyada yosh jinoyatchilar uchun ikkita yangi turdagi ta'sir chorasi joriy etilgan bo'lib, ular **yoshlar jazosi (ungdomsstraff) va yoshlarni kuzatish (ungdomsoppfølging)**⁹. Ushbu ta'sir choralari yoshlarning hayotini tiklash huquqi g'oyalari asoslangan. Yangi qabul qilingan "Vositachilik xizmatlari to'g'risida"gi qonunda tiklash huquqi (gjenopprettende prosess) prinsip sifatida belgilangan¹⁰. Bu esa yoshlarning jazoni o'tashdan oldin va keyin o'z hayotlarini qayta tiklash uchun zamin yaratadi.

Hozirgi kunda, Norvegiya qonun ijodkorlari "Jazo ijrosi to'g'risida"gi qonuniga ham tuzatishi kiritishni ilagari surishmoqda, unga ko'ra, jazoni ijro etish davrida tiklash huquqini ushbu qonunga ham kiritish taklif etilmoqda¹¹. Norvegiyada, jinoyat sodir etgan yoshlarni kuzatish va ularning xulq atvorini baholash prokuror yoki sud qaroridan keyin qo'llanilishi shart. Kuzatuv davri bir yildan oshmasligi kerak. Yoshlar sodir etgan jinoyati uchun jazo faqat sud tomonidan belgilanadi. Ikkala ta'sir chorasi uchun ham ayblanuvchi (va uning qonuniy vakili) ta'sir chorasi qo'llanilishi uchun rozilik berishi kerak. Yoshlarga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralari albatta ularga mos bo'lishi, yosh ayblanuvchiga nisbatan konstruktiv va tiklovchi jazo shaklini olish imkoniyati beradi. Biroq, rozilik ta'sir chorasi qo'llanilishidan oldin beriladi. Ta'sir chorasini qo'llanilishi, albatta, yoshlar konferensiyasi (yoshlar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot va uning yig'ilishi) da ham hal etilishi lozim.

Jazoni belgilash jarayoni o'z navbatida ichki bo'linishga ega bo'lib, sud yoshlarga tayinlangan jazoni qancha muddatga amalga oshirilishini va jinoyatchi yangi jinoyat xatti-harakatlar sodir etsa, yoshlarni qayta tarbiyalashga erishilmasa yoki amalda ko'rsatilgan majburiyatlar bajarilmasa, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qancha muddatga o'talishini belgilaydi.

⁸ Holmboe, Fengsel eller frihet: Om teori og praksis i norsk straffutmåling, særlig i grenselandet mellom fengsel og mildere reaksjoner (Gyldendal 2016) pp. 62-65 (hereafter Holmboe 2016a).

⁹ Gröning and Jacobsen, Introduction: Restorative justice and the criminal justice system in Restorative justice and criminal justice: Exploring the relationship, eds. Gröning and Jacobsen (Santérus 2012) pp. 9-19;

¹⁰ the Act 2014-06-23-49 on the Mediation Services (Lov om konfliktrådsbehandling (konfliktrådsloven)), section 1 and Act 2001-05-18-21 relating to the execution of sentences etc. (The Execution of Sentences Act), (Lov om gjennomføring av straff mv. (straffgjennomføringsloven)) section 2.

¹¹ Fengsel eller frihet: Om teori og praksis i norsk straffutmåling, særlig i grenselandet mellom fengsel og mildere reaksjoner (Gyldendal 2016) pp. 62-65 (hereafter Holmboe 2016a)



Date: 17th April-2026

Xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida olingan xulosa shuki, Germaniya, Yaponiya va Norvengiyada voya yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda asosan urg'u ularning voyaga yetmaganligiga, jinoyatning og'irlik darajasi hamda yoshlar tomonidan takroran jinoyat sodir etilganligiga qarab ularga o'g'ir yoki yengil darajada jazo tayinlashga qaratiladi.

Bundan tashqari, yuqoridagi, ikkita davlatda (Yaponiya va Norvengiya) yoshlarning jamiyatdagi asosan, maktab, mahalla hamda ular ijtimoiy jihatdan munosabatlarga kirishishi mumkin bo'lgan joylardagi, ularning psixologik holatlarni hisobga olgan holda ham jazo tayinlanishiga erishish aosiy maqsad sifatida belgilangan. Ahamiyatli jihat shundaki, ushbu davlatlarda yoshlar bilan jinoyat sodir etganidan so'ng ishlash tizimi, jazo tayinlashda bir nechta davlat organlari hamda sudning ishtiroki milliy qonunchiligimizdan tubdan farq qiladi. Shu sababli ham, ushbu jihatlarni milliy qonunchiligimizga tatbiq etish, aynan voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash tizimining yanada liberallashuviga hamda yoshlarni jinoyat sodir etganlaridan so'ng, o'z hayotlari qayta integratsiya qilinishlari uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

